



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 14-may, № 97 (8992)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



YEVROITTIFOQ BILAN AMALIY SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-may kuni Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Eduards Stipraysni qabul qildi.



YEI maxsus vakili Yevrokengash Prezidenti Antoniu Koshta va Yevrokomissiya Prezidenti Ursula fon der Lyayenning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Joriy yil aprel oyida Samarqand shahrida o'tgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitida qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish doirasida ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Investitsiyaviy va moliyaviy-texnik hamkorlik bo'yicha umumiy qiymati 12 milliard yevrolik aniq loyihalarni tez fursatda tayyorlash va ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi, shuningdek, bo'lajak tadbirlar rejasi ko'rib chiqildi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Matbuot
xizmati surati.

NEFT-GAZ TIZIMIDA O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIK MASALALARI KO'RIB CHIQILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O'zbekiston neft va gaz” xalqaro forumi doirasida Toshkent shahrida bo'lib turgan Rossiyaning “Gazprom neft” kompaniyasi boshqaruvi raisi Aleksandr Dyukovni qabul qildi.

Rossiyaning yoqilg'i-energetika sohasidagi yetakchi kompaniyasi bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Neft mahsulotlarini yetkazib

berish, qazib olinishi qiyin bo'lgan konlarni o'zlashtirish va sohani raqamlashtirish borasidagi sheriklikni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

SEYSMIK XAVFSIZLIKNI KUCHAYTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev seysmik xavfsizlikni kuchaytirish chora-tadbirlariga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda buniyodkorlik ko'lami keng. 2017-yildan buyon joylarda 11 ming 410 ta ko'p qavatli uy qurilgan. Bu aholini turarjoy bilan yetarlilash ta'minlash, turmush sharoitlarini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Qurilishning asoslaridan biri bo'lgan seysmologiya sohasi ham rivojlanib bormoqda. Bu borada xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilib, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, davlatimiz ko'p jabhalarda tashabbuskor hamdir.

Ma'lumki, 1966-yil 26-aprelda Toshkent shahrida vayronkor zilzila sodir bo'lgan. O'zbekiston Prezidenti zilzila qurbonlariga hurmat ko'rsatish va bu borada xalqaro hamkorlik zarurligini eslatish

maqsadida xotira va birdamlik kunini ta'bis etish tashabbusini ilgari surgan edi. Buning e'tirofi o'laroq yaqinda BMT Bosh Assambleyasi 29-aprelni Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni, deb e'lon qilish to'g'risida rezolyutsiya qabul qildi.

Bu sohada xalqaro standartlarga mos bo'lish uchun davlatimiz rahbari yangi qurilayotgan uylarning sifatiga e'tiborni kuchaytirish vazifasini qo'yg'an edi. Shunga muvofiq ko'p qavatli uylarning zilzilaga bardoshlilikini oshirish va aholining seysmik xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rilmoqda.

Jumladan, davlat loyiha institutlari mutaxassislari ishtirokida joylarda o'rganishlar o'tkazildi. Ushbu o'rganish natijalari va hududlarning seysmik holati tahlili asosida bu tizimni yanada

takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Unga ko'ra xorijiy mutaxassislar jalb qilingan holda binolarni o'rganish bo'yicha yangi amaliyot yo'lga qo'yiladi. Zilzilaga va boshqa tabiiy ofatlarga bardoshli uylarni qurish bo'yicha tajriba almashish kengaytiriladi. Binolar instrumental texnik tekshiruvdan o'tkazilib, kamchiliklar bartaraf etiladi.

Ushbu o'rganishlar va xorijiy tajriba asosida seysmik xavfni, ta'sirni va xatarni baholash yuzasidan me'yoriy hujjatlar o'zgartirishlar kiritiladi.

Davlatimiz rahbari qurilishda sifat va xavfsizlik birinchi o'ringda ekanini ta'kidlab, bu yo'nalishlarni ilmiy rivojlantirish, sohaga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'zA.

YO'L XO'JALIGI SOHASIDAGI LOYIHALAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yo'l xo'jaligidagi ishlar natijadorligi va rejadagi loyihalar bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrda qaroriga muvofiq bu sohada boshqaruv takomillashtirilib, yo'llar qurish, ta'mirlash va saqlash bo'yicha ko'p yillik vazifalar belgilangan edi. O'tgan 2 yilda bu maqsadlarga 26 trillion so'm ajratilib, jami 40 ming kilometr yo'l va 540 ta ko'priklarni ta'mirlandi. Sohaga chetdan jalb qilinayotgan mablag'lar ham uch karra oshdi.

Lekin hali qilinadigan ishlar ko'p. Bu yil 7 ming kilometr umumiy foydalanishdagi yo'l hamda 231 ta ko'priklarni qurish va ta'mirlash, 13 ming kilometr tuproq ko'chalarga shag'al yotqizish, 400 kilometr sement qoplamali yo'llar qurish, magistrallar bo'yida 72 ta servis majmuasi tashkil etish rejalashtirilgan.

Taqdimotda mutasaddilar shular haqda axborot berdi.

Yangi loyihalarni belgilashda yo'llarning hozirgi holati va qatnov darajasiga e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda 1 ming 200 kilometr yo'lni rekonstruksiya qilish bo'yicha 6 ta yirik loyiha amalga oshirilmoqda.

Yana 4 ta loyiha boshlanishi ko'zda tutilgan. Xususan, To'rtko'l va Beruniy shaharlarini aylanib o'tuvchi “A-380” magistralini rekonstruksiya qilish, Qoraqalpog'iston va Xorazmda 516 kilometr mahalliy yo'llarni to'la ta'mirlash, Termiz – Denov hamda Sirdaryo – Baxt oraliqidagi yo'llarni sement-beton qoplamali qilib qurish rejalashtirilgan. Bu loyihalarga Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki mablag'lari yo'naltiriladi.

Davlatimiz rahbari eng muhim masala yo'llarni sifatli saqlash ekanini ta'kidladi. Yo'l bo'yilarida infratuzilmani rivojlantirib, aholiga qulayliklar yaratish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Qamchiq dovonida statsionar nazorat posti ishga tushirilgan. Buni yuk tashish oqimi yuqori bo'lgan boshqa yo'llarda ham tashkil qilish zarurligi qayd etildi.

Shu o'rinda aytish kerakki, bundan qariyb 20 yil oldin qabul qilingan “Avtomobil yo'llari to'g'risida”gi Qonun hozirgi zamon talablariga javob bermayapti. So'nggi yillardagi islohotlar, bugungi dolzarb masalalar unda aks etmagan.

Shu bois mazkur qonun yangi tahrirda ishlab chiqilmoqda. Unda, jumladan, “avtomobil yo'llarini rejalashtirish” mexanizmini joriy etib, yo'l infratuzilmasini aholi va

iqтisodiyotning o'sib borayotgan ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirish nazarda tutilmoqda. Yo'llarni loyihalashtirishda aholi fikri va atrof-muhitga ta'sirini inobatga olish hamda piyodalar uchun to'siqsiz muhitni yaratish bo'yicha qat'iy talablar o'rnatilmoqda. Kommunikatsiya tarmog'ini qurishda yo'lning avvalgi holatini tiklash xarajatlarini qoplash sharti kiritilmoqda.

Pullik yo'llarning huquqiy asoslari, ajratilgan va yo'l bo'yi mintaqalarida servis binolarini joylashtirishga oid talablar belgilanmoqda. Yo'llarda katta hajmli va og'ir vaznli transport vositalarining harakatlanishi tartibga solinmoqda.

Taqdimotda mutasaddilar muqobil yo'llar qurish bo'yicha xususiy sheriklik loyihalari yuzasidan ham hisobot berdi.

PARLAMENTLARARO ALOQALAR YANADA RIVOJLANADI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Qirg'iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag'asi o'rinbosari Nurlanbek Azigaliyev bilan uchrashdi.

Muloqot

Unda so'nggi yillarda o'zbek – qirg'iz munosabatlari strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgani, mamlakatlarimiz rahbarlarining muntazam uchrashuvlari va oliy darajadagi muzokaralar, konstruktiv

va ochiq muloqot, sheriklikni chuqurlashtirishga bo'lgan samimiy intilish ikki tomonlama munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratgani alohida qayd etildi.

Muloqotda mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar, jumladan, parlamentlararo hamkorlikni

rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar rivojlanib borishi o'rtidan o'zbek – qirg'iz parlamentlararo munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgani alohida ta'kidlandi.

O'z navbatida, N. Azigaliyev Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan pragmatik tashqi siyosatni, ayniqsa, qo'shnilar bilan munosabatni

yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlar natijalarini yuqori baholadi.

Shuningdek, u kuni kecha Samarqand shahrida Oliy Majlis va Jogorku Kenesh o'rtasidagi hamkorlik bo'yicha Parlamentlararo komissiyaning beshinchi majlisi muvaffaqiyatli o'tgani, ushbu uchrashuv parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatishini bildirdi.

Suhbat davomida ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashda muhim omil bo'lgan parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish, bu yo'nalishdagi muloqotlarni ko'paytirish, xalq diplomatiyasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashishni rivojlantirish har tomonlama foydali ekanligi qayd etildi.

Uchrashuvda tomonlarni qiziqtirgan boshqa masalalarga ham e'tibor qaratildi.

“Xalq so'zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

QIZG'IN BAHS VA JIDDIY MUHOKAMALAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlis avvalida Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov mamlakatimiz hayotidagi muhim voqe'liklar haqida to'xtaldi.

Jumladan, o'tgan hafta mamlakatimizda 9-may – Xotira va Qadrlash kuni “Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi” shiori ostida nishonlangani, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning yashash joylarini ta'mirlash, obodonlashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilgani ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari g'oyasi asosida G'alaba bog'i hududida yana bir tarixiy yodgorlik – “Millat fidoyilari” majmuasi barpo etilgani, ushbu yodgorlik mustaqillik yillarida

Vatanimiz himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining xotirasiga bag'ishlangani g'oyat muhim ahamiyatga ega ekanini aytib o'tildi.

Shuningdek, Spiker 7-may kuni Prezidentimiz raisligida tibbiyotning birlamchi bo'g'ini va ixtisoslashtirilgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste'molini tartibga solish hamda tibbiy ta'limni takomillashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida muhim chora-tadbirlar belgilab berilganiga alohida urg'u berdi.



OILAVIY BAXT – ENG ULUG' SAODAT

Mamlakatimizda oila institutini har tomonlama mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ayollarning oila va jamiyatdagi nufuzini oshirish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Bu borada eng quyi bo'g'in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratildi. “Ibratli oila” ko'krak nishoni ta'asis etilgani ham har bir oila davlat himoyasida ekanini amalda isbotlamoqda.

Rag'bat

15-may – Xalqaro oila kuni arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida “Ibratli oila” ko'krak nishonini o'z egalariga tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda davlat va jamoat arboblari, turli tashkilotlar mas'ullari, senatorlar, deputatlar, olimlar, ijodkor va san'atkorlar, shuningdek, dunyo ayollar harakatida o'z mavqeiga ega bo'lgan, O'zbekistonning oila va xotin-qizlar tizimi rivojiga munosib hissa qo'shgan faollar qatnashdi.

O'zbekiston Bosh vaziri o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova tadbirdi ochar ekan “Ibratli oila” ko'krak nishoni bilan har yili 208 ta oila taqdirlangan bo'lsa, bu yil davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2 mingta oila ushbu e'tirofga munosib ko'rilganini ta'kidladi.

Hududlardan 14 ta, vazirlik va idoralardan 46 ta oilaga ushbu nufuzli ko'krak nishoni topshirildi. Nizomga muvofiq ko'krak nishoni, qoida tariqasida, oila bekasi bo'lgan ayol kishi nomiga rasmiylashtirib berilishi ham oila va jamiyatda ayol zotining nufuzi oshishiga

xizmat qiladi. Ko'krak nishoni bilan taqdirlangan har bir oila xonadonlari va uy-joylarining kirish qismiga faxriy belgi o'rnatilishi o'zbek oilasining barqarorligini, ilm-ma'rifatga, mehnat va yuksak axloqqa bo'lgan sadoqatini namoyon etuvchi yaqqol timsoldir.

Tadbirning tantanali madaniy qismi Kasaba uyushmalari saroyida bo'lib o'tdi. Biz farzandlarini halol, vatanparvar va qimishli qilib tarbiyalayotgan, oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga hissa qo'shayotgan, hayotiy tajribalarini ommalashtirishga munosib topilgan oilalar vakillarini suhbatga tortdik.

Shohida ISMOILOVA,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist,

“Ibratli oila” ko'krak nishoni sohibasi:

– “Ibratli oila” ko'krak nishoni faqat mukofot emas, bu – jamiyat e'tirofi, elning duosi, avlodlar uchun o'rnatilgan meros. Biz ham o'z mehnati, qadriyatlarini va tarbiyasi bilan ko'pchilikka o'rnatilgan qadriyatlar qatoriga qo'shilganimizdan xursandmiz. Mahmud aka bilan turmush qurganimizga qirg'iz yil bo'libdi. Uch qizning ota-onasi, to'rt nabiraning bobosi va buvisimiz.



Uchrashuv

DO'STONA MUNOSABATLARNING YANGI BOSQICHI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Oliy Majlis va Jogorku Kenesh o'rtasida hamkorlik bo'yicha parlamentlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Qirg'iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag'asi o'rinbosari Nurlanbek Azigaliyev boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Unda parlamentlararo hamkorlikning dolzarb masalalari, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi aloqalar hamda uni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Bunday formatdagi uchrashuvlar ikki do'st davlat o'rtasidagi barqaror siyosiy muloqotning eng muhim jihatlaridan biri ekanini ta'kidlandi.

Tomonlar oliy darajadagi o'zaro tashriflar hamda xalqaro parlament forumlari doirasida kengayib borayotgan ikki tomonlama aloqalarning izchil sur'atini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Parlamentlararo komissiya yig'ilishlarini hududlarda o'tkazishning ijobiy amaliyotiga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayon hududlararo aloqalarni mustahkamlashga yordam berib, joylardagi o'ziga xosliklarni hisobga olish imkonini beradi. Komissiya parlament a'zolari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot uchun samarali maydon bo'lishi hamda ikki

tomonlama kun tartibini aniq tashabbuslar bilan boyitishi muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, muloqot chog'ida Parlamentlararo komissiya faoliyati doirasida Samarqandda o'tkazilgan birinchi O'zbekiston – Qirg'iziston turizm forumi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni qadallashtirishda navbatdagi faolam ekanini, o'zbek va qirg'iz xalqlari o'rtasida turizm va madaniy almashinuv sohasida muhim voqe'lik bo'lgani qayd etildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish, xalqaro parlament tuzilmalari doirasida hamkorlikni kengaytirish, do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va mintaqaning barqaror rivojlanishini mustahkamlashga qaratilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirishdan o'zaro manfaatdor ekanliklarini yana bir bor tasdiqladi.

“Xalq so'zi”.

Senat qoʻmitalarida

XOTIN-QIZLARNI
IJTIMOIY QOʻLLAB-
QUVVATLASH —
DOIMIY
EʼTIBORDA

Oliy Majlis Senati Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasining ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni har tomonlamo qoʻllab-quvvatlash, ularning muammolarini oʻrganish va hal etish boʻyicha Sirdaryo viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar holatini oʻrganish natijalari muhokamasiga bagʻishlangan majlisi boʻlib oʻtdi.

Unda senatorlar, vazirlik va idoralar masʼullari, ekspertlar, shuningdek, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari hamda Yoshlar parlamenti aʼzolari ishtirok etdi.

Taʼkidlanganidek, 2025-yilning birinchi choragida kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimlariga 3 841 xotin-qiz ish soʻrab murojaat qilgan. Ularning 1 915 nafari ishga joylashtirilgan, 1265 nafari kasbga oʻqitishga yuborilgan va 15 nafariga ishsizlik nafaqasi tayinlangan. Yoki viloyat boʻyicha oʻtkazilgan 44 ta boʻsh ish oʻrni yarmarkasiga 656 xotin-qiz ish soʻrab murojaat etgan boʻlsa, shulardan 143 nafarining bandligi taʼminlangan, 191 nafari kasbga oʻqitishga yuborilgan va 249 nafariga maslahatlar berilgan.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida tijorat banklari tomonidan 203,3 ming xotin-qizga 3 trln. 128 mlrd. soʻm imtiyozli kredit ajratilgan. Oliy taʼlim muassasalarida tahsil olayotgan ehtiyojmand oilalardan boʻlgan 139 nafar talaba qizga 1 mlrd. 150 mln. soʻm shartnoma toʻlovlari Davlat byudjetidan qoplab berilgan. Bundan tashqari, viloyat boʻyicha ijtimoiy himoyaga muhtoj 90 nafar xotin-qiz uy bilan taʼminlangan.

Oʻrganishlar davomida viloyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni har tomonlamo qoʻllab-quvvatlash, ularning muammolarini hal etish boʻyicha oʻz yechimini kutayotgan ayrim masalalar hamda ishga solinmagan imkoniyatlar mavjudligi ham aniqlandi.

Xususan, bandligi taʼminlanganligi qayd etilgan 1 915 xotin-qizdan 740 nafari (38,6 foizi) soliq organlari maʼlumotlari bazasida tasdiqligini topmagan. Shundan 117 nafari ijtimoiy daftarlarga kiritilgan xotin-qizlarni tashkil etadi. 2024/2025 oʻquv yilida viloyatdagi oliy taʼlim muassasalarini bitirgan 1 809 xotin-qizdan 781 nafarining bandligi taʼminlangan.

Viloyat boʻyicha kvotadan foydalanish darajasi 24,2 foiz boʻlsa-da, Yangiyer shahrida bu koʻrsatkich atigi 2 foizda qolib ketgani achinarli. Nogironligi boʻlgan shaxslar uchun 283 ta ish oʻrni band qilingan boʻlib, Boyovut, Guliston tumanlari va Yangiyer shahrida ushbu ish oʻrinlaridan foydalanilmagan.

Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan oʻqitilgan ayollarning keyinchalik bandligini taʼminlash boʻyicha monitoring olib borilgan.

Shuningdek, xotin-qizlarni kasb-hunar, tadbirkorlik va tomorqa xoʻjaligini yuritishga oʻqitish jarayonini tashkil etish tartibiga asosan oʻquv dasturlarining soati oʻrgatiladigan sohaning yoʻnalishlaridan kelib chiqqan holda belgilanishi lozim. Biroq 30 dan ziyod oʻquv yoʻnalishlarining barchasi bir xil 36 soat hajmda olib borilmoqda.

Majlis davomida yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan qoʻmita qarori qabul qilindi.

AHOLI TOZA
ICHIMLIK SUVI BILAN
TAʼMINLANISHI SHART

Ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimini yaxshilash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini oʻrganish natijalariga bagʻishlangan yana bir muhokama Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi hamda xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining qoʻshma majlisida boʻlib oʻtdi.

Qayd etilganidek, soʻnggi yetti yilda viloyatda ichimlik suvi bilan taʼminlanganlik darajasi 63,9 foizdan 87,7 foizga yetkazilgani natijasida 453 mingdan ortiq aholining suv taʼminoti yaxshilangan.

Birgina oʻtgan yilda 37 mlrd. soʻm hisobiga 9 ta suv inshooti qurilib, 62 km. ichimlik suvi tarmoqlari tortilgan. Buning natijasida 12 ming aholining suv taʼminoti yaxshilanib, 8 ming aholiga ilk bor ichimlik suvi yetkazib berilgan.

Bundan tashqari, joriy yilda Tiklanish va taraqqiyot jamʼarmasining 118 mlrd. soʻm mablagʻlari hisobidan 66 km. ichimlik, 22 km. oqova suv tarmoqlari va 87 ta suv inshooti qurilib, 343 ta suv inshootiga zararsizlantirish uskunalari oʻrnatilishi belgilangan.

Mazkur loyihalarning oʻz vaqtida va sifatli bajarilishini taʼminlash maqsadida deputatlik nazorati oʻrnatilib, har bir qurilish obyektiga tuman (shahar), viloyat Kengashi deputatlari manzilli birliktirilgan.

Muhokama jarayonida senator va deputatlar tomonidan viloyat aholisini toza ichimlik suvi bilan taʼminlash, oqova suv xizmatini koʻrsatishda oʻz yechimini kutib turgan masalalarga, shuningdek, yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarga eʼtibor qaratildi. Xususan, mavjud suv inshootlarining 11 foizi hamda ichimlik suvi tarmoqlarining qariyb 17 foizi taʼmirtalab ekanini qayd etildi. Boyovut, Xovos, Sayxunobod va Oqoltin tumanlarida hamda Guliston shahrida suv inshootlari va suv uzatish tarmoqlarining 30 foizdan ziyodi oʻtgan asrning 70 – 80 yillarida qurilgan.

Bundan tashqari, 292 km. oqova suv tarmoqlaridan qariyb 45 km. (15 foiz) qismi taʼmirtalab holatda boʻlib, bu asosan, Oqoltin tumani, Yangiyer, Shirin hamda Guliston shaharlariga toʻgʻri keladi.

Achnarilisi, viloyatning Mirzaobod tumanidagi Bahoriston va Yoʻldoshobod, Xovos tumanidagi Sharqobod, Sardoba tumanidagi Zomin, Toʻrt tomon, Guliston tumanidagi Zarbdor, Sayxunobod tumanidagi Yangiobod mahallalari hanuzgacha ichimlik suvi bilan taʼminlangan.

Majlisda soʻzga chiqqan senator va deputatlar viloyatda ichimlik suvi hamda oqova suv tizimidan samarali foydalanish, aholini suv bilan taʼminlash darajasini yaxshilash yuzasidan oʻz taklif va tavsiyalarini bildirdi. Bu masalalar muhokama etilgan mavzu yuzasidan qabul qilingan qoʻshma qarorda oʻz aksini topdi.

“Xalq soʻzi”.

QIZGʻIN BAHS VA JIDDIY MUHOKAMALAR

Tizimni toʻliq raqamlashtirish, sohaning birlamchi boʻgʻinini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish, tibbiyot xodimlarining bilimi va davolash sifatini oshirish boʻyicha bildirilgan tashabbuslar oʻz vaqtida hayotga tatbiq etilishini taʼminlash masalasi parlament aʼzolari, qoʻmitalar, siyosiy partiyalar fraksiyalarining doimiy eʼtiborida boʻlishi lozimligi taʼkidlandi. Xususan, tibbiyot sohasiga doir qonunchilikni bugungi kun talablari asosida yanada takomillashtirish, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan taʼsirchan parlament nazoratini taʼminlashga ustuvor ahamiyat qaratishlari kerakligi urgʻulandi.

Majlisda, shuningdek, intellektual mulk himoyasini kuchaytirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, intellektual mulk obyektlarini roʻyxatdan oʻtkazish tartiblarini soddalashtirish, parlamentdagi muxolifatning kafolatlangan huquqlarini kengaytirish, agrar sohadagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimini shakllantirishga doir qator qonun loyihalari koʻrib chiqildi.

Turli qarashlar va fikrlar
xilmaxilligi taʼminlanadi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan – “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga parlamentdagi muxolifatning kafolatlangan huquqlarini kengaytirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi obdan muhokama etildi.

U bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzini parlamentdagi muxolifat deb eʼlon qilgan siyosiy partiya fraksiyasiga qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqilguniga qadar oʻsha masalaga doir qonun loyihasi, shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qarori loyihasining muqobil tahririni kiritish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir nafar qoʻmita raisi va ikki nafar qoʻmita raisi oʻrinbosari lavozimlarini kafolatti egallash, har chorakda “Hukumat soati” doirasida hamda parlament soʻrovini yuborish toʻgʻrisida kamida bitta masala kiritish kabi qoʻshimcha huquqlar berishni nazarda tutgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilyapti.

Deputatlar ushbu hujjatning qabul qilinishi parlamentda turli qarashlar, fikrlar xilmaxilligini kuchaytirib, uning qoʻyalar generatoriga aylanishda muhim omil boʻlishini taʼkidladilar.

Qonun loyihasi uchinchi oʻqishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.



OʻzXDP fraksiyasi oʻzini
parlamentdagi muxolifat deb
eʼlon qildi

“Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasining oʻzini parlamentdagi muxolifat deb eʼlon qilish toʻgʻrisidagi bayonoti haqida”gi masala atroflicha koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, OʻzXDP soʻl qanot partiya sifatida faoliyati davomida ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning hayotiy ehtiyojlari bilan bogʻliq masalalarni hal etish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish, aholini kafolatti daromad manbai bilan taʼminlash boʻyicha choralar koʻrishda faol qatnashib kelmogʻda.

Qonunchilik palatasi faoliyatini chuqur tahlil qilish, uning ishini kuzatish va xolis baholash hamda elektorat fikrini inobatga olgan holda partiya oʻtgan davrdagi faoliyati natijalari, saylovoldi platformasi va hukumat dasturi yoʻnalishlari tahlili asosida oʻz siyosiy pozitsiyasini shakllantirdi.

Shu bois partiya elektorati ovoziini parlament va hukumatga yetkazish, ularning manfaatlarini samarali himoya qilish, mamlakatda kuchli ijtimoiy siyosat yuritishni davom ettirish uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi oʻzini parlamentdagi muxolifat fraksiyasi deb eʼlon qildi.

OʻzXDP fraksiyasi ijtimoiy himoya, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy birlamchi tamoyillarini yuzaga chiqarish orqali “Oʻzbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyilini amalga oshirishda saylovchilar manfaatlarini birinchi oʻringa qoʻyishi va mamlakatning bargqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi farovonligini taʼminlash yoʻlida barcha saʼy-harakatni bundan buyon ham safarbar qilishda davom etadi.

Majlisda OʻzXDP fraksiyasining oʻzini parlamentdagi muxolifat deb eʼlon qilish toʻgʻrisidagi bayonoti haqidagi masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.



Munozaralarda qanday savollar
koʻtarildi?

Deputatlar intellektual mulk himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi oʻqishda moddama-modda koʻrib chiqdi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishni taʼminlash, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini shakllantirish, intellektual mulk egalarining qonuniy manfaatlarini taʼminlash borasida keng koʻlamli ishlar bajarilmoqda.

Qonun loyihasi bilan intellektual mulk obyektlaridan foydalanishdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni qatʼiylashtirish va uni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirish talablaridan kelib chiqib amaldagi 4 ta kodeksga, yaʼni Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi va Fuqarolik kodekslariga mualliflik huquqi hamda turdosh huquqlarni, shuningdek, sanoat mulki obyektlariga boʻlgan huquqlarni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda.

Loyiha bilan Jinoyat kodeksining 149-moddasiga seleksiya yutugʻi va integral mikrosxema topologiyasiga nisbatan mualliflikni oʻzlashtirib olish uchun javobgarlik oʻrnatilayotgani sababli uni ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida 149³-moddasiga tegishli oʻzgartirish nazarda tutilyapti.

Shuningdek, Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 177-moddasiga qoʻshimcha kiritilyapti. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasida roʻyxatdan oʻtkazilmagan tovar

belgilanayotgani, lekin ushbu normada patentdan ruxsatsiz foydalanish tor doirada boʻlib qolayotgani va uni kuchaytirish lozimligini taʼkidlab, bu boʻyicha oʻz taklifini bildirdi.

Muhokama chogʻida **OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi Saydullo Azimov** qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga kiritilayotgan oʻzgartirish toʻgʻrisida ham toʻxtalib oʻtdi. Jumladan, 290-modda yangi ikkinchi qism bilan, xususan, adliya organlari tomonidan ashyolarni koʻzdan kechirish vaqtida aniqlangan huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyolar boʻlmish ashyo va hujjatlar xatlanadi degan norma bilan toʻldirilayotgani va bu mazkur kodeksda koʻrsatilayotgani qanchalik oʻrinli ekanini qiziqdi.

Qonun tashabbuskorlari munozaralarda koʻtarilgan savollarga atroflicha tushuntirish berib oʻtdi. **Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi aʼzosi Javlon Abdullayev** “xatlov instituti” qonunchilikka yangi kirib kelayotganini qayd etib, ayrim normalarga tahririy tuzatish kiritish sharti bilan qonun loyihasini ovozga qoʻyish taklifini bildirdi.

Majlisda qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda qabul qilindi.

Boj stavkalari JST qoidalariga
muvofiqlashtirilmoqda

“Oʻzbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga oʻzgartirishlar va qoʻshimcha kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Mamlakatimizda iqtisodiy salohiyatni toʻlaqonli roʻyobga chiqarish, uning global ishlab chiqarish va qoʻshilgan qiymat zanjiriga integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, erkin bozor tamoyillarini amalga tatbiq etishni kengaytirish hamda Oʻzbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qoʻshilishini jadallashtirish maqsadida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Muhokamada deputatlar savdoda adolatti qoidalarini oʻrnatish va bunda barcha aʼzolarga teng sharoit yaratish Jahon savdo tashkilotining eng muhim prinsiplaridan biri ekanligini eʼtirof etgan holda chetdan olib kelinayotgan tovarlar uchun davlatiga qarab turlicha stavkalarning qoʻllanilishi teng raqobat muhitiga salbiy taʼsir koʻrsatayotganligiga oʻz munosabatlarini bildirdi.

Deputatlar tomonidan ushbu yoʻnalishdagi tartiblarni JSTning qoida va meʼyorlariga muvofiqlashtirish zaruriyati yuzaga kelayotganligi alohida qayd etildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng koʻp qulaylik berish nazarda tutilmagan mamlakatlarda (hozirda 57 davlat eng koʻp qulaylik rejimiga ega) ishlab chiqarilgan yoxud ishlab chiqarilgan mamlakat aniqlanmagan tovarlarga nisbatan amaldagi import bojlari stavkalarini 2 karra oshirib koʻllash amaliyotini bekor qilish nazarda tutilmoqda.

Xalq vakillari mazkur hujjat iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi, qonunchilikdagi boʻshliqlarni bartaraf etishi yuzasidan ijobiy fikrlar bildirdi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi milliy qonunchilik normalarini Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiqlashtirish, import va eksport geografiyasi oshishiga xizmat qildi.

Majlisda qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda qabul qilindi.

Intellektual mulk obyektlari
muhofazasi

Majlisda intellektual mulk obyektlarini roʻyxatdan oʻtkazish tartibini soddalashtirishga qaratilgan qonun loyihasi qizgʻin muhokamaga sabab boʻldi.

Mamlakatimizda aholining, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlarining intellektual mulk sohasidagi xabardorlik darajasini kuchaytirish, yaratilgan intellektual faoliyat natijalarini muhofaza etish jarayonlarini raqamlashtirish orqali ortiqcha talablarni bekor qilish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qonun loyihasi bilan ham sanoat mulki obyektlarini roʻyxatdan oʻtkazish jarayonlarida davlat boji toʻlanganligini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim etishni bekor qilish taklif etilmoqda.

Shuningdek, loyihada elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlarni va maʼlumotlar bazalarini rasmiy roʻyxatdan oʻtkazish uchun taqdim etilgan talabnoma va unga ilova qilingan hujjatlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish muddatini 10 kun etib belgilash nazarda tutilyapti.

Intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlarni tasdiqlovchi muhofaza hujjatlarini esa yagona QR-kod (matrik shtrixli kod) qoʻyilgan holda elektron shaklda avtomatik tarzda berish belgilanmoqda.

Bundan tashqari, tovar kelib chiqqan joy nomini va (yoki) tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini roʻyxatdan oʻtkazishga doir talabnomada ifodalangan belgini ekspertizadan oʻtkazish muddatini yetti oydan bir oyga qisqartirish, intellektual mulk obyektni roʻyxatdan oʻtkazishda davlat bojini toʻlash uchun belgilangan uch oylik muddat oʻtkazib yuborilganda, uni qoʻshimcha toʻlov evaziga (patent bojining 50 foizi) olti oygacha uzaytirish nazarda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash davomida siyosiy partiyalar fraksiyalari, deputatlar tomonidan berilgan takliflar ishchi guruh yigʻilishlarida chuqur tahlil qilinib, ular asosida hujjat matni takomiliga yetkazilgani alohida qayd etildi.

Deputatlarining aytishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi va innovatsion jihatdan yuksalishiga samarali taʼsir koʻrsatuvchi intellektual mulk tizimini shakllantirish hamda intellektual faoliyat natijalari egalariga oʻz intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga yoʻl ochadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi oʻqishda qabul qilindi.

Qonun loyihasiga 46 nafar
deputat qarshi ovoz berdi

Majlisda meva-sabzavot yetishtiruvchi subyektlarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat bilan taʼminlash, intensiv usulda bogʻ va tokzorlar barpo qilish, issiqxona xoʻjaliklarini rivojlantirish, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirishni koʻpaytirish, qayta ishlash, eksport salohiyatini kuchaytirish hamda yuqori daromadli ish oʻrinlarini tashkil etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan “Davlat boji toʻgʻrisida”gi Qonunga Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi – meva-sabzavotchilik yoʻnalishidagi mahsulot yetishtiruvchi, qayta ishlashchi subyektlar, issiqxona xoʻjaliklari hamda oʻz huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida berilgan arizalar, shikoyatlar va daʼvolar yuzasidan davlat bojini toʻlashdan ozod etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish taklif qilinganmoqda.

Masʼul qoʻmita tomonidan qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash davomida undagi normalar deputatlar bergan takliflar asosida “Davlat boji toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiqlashtirildi.

Qonun loyihasi qizgʻin munozaralarga sabab boʻldi. Jumladan, **OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi Dilmurod Artiqov** “Davlat boji toʻgʻrisida”gi Qonunning 10-moddasiga kiritilayotgan oʻzgartirish, yaʼni maʼmuriy sudlarga shikoyat qilish bilan bogʻliq masalaga eʼtibor qaratdi. Agrosanoatni rivojlantirish agentligi oʻz manfaatidan kelib chiqib maʼmuriy sudga shikoyat bersa, davlat bojidan ozod etilishi nazarda tutilayotganini, bu esa maʼmuriy sud ish yurituvchi prinsipiga qanchalik toʻgʻri kelishiga izoh soʻradi.

Qonun loyihasiga masʼul deputatlar, qonun tashabbuskorlari mazkur hujjat yuzasidan koʻtarilgan shu va boshqa savollarga atroflicha javob berdi va ushbu masalalar bilan bogʻliq tahlillar, raqamlar keltirib oʻtildi.

OʻzXDP fraksiyasi aʼzosi Anvarxon Temirov qonun loyihasini yanada takomillashtirish zarurati borligini va uni qoʻmitaga qaytarish taklifini ham bildirdi.

OʻzLiDeP fraksiyasi rahbari Aktram Haitov meva-sabzavot yetishtiruvchi subyektlarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan qonun loyihasi kuni kecha boʻlib oʻtgan siyosiy partiyalar fraksiyalari yigʻilishlarida atroflicha muhokama qilinganini taʼkidlab, qoʻmita taklifi ovozga qoʻyilishni soʻradi.

Majlisda qonun loyihasiga 46 nafar deputat qarshi ovoz berdi, 13 nafar deputat betaraf boʻldi. Natijada mazkur hujjat juda kam ovoz ustunligi bilan ikkinchi oʻqishda qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TAʼLIMI HUDUDIIY BOSHQARUV ORGANLARI, TAʼLIM MUASSASALARI, KORXONA VA TASHKILOTLAR RAHBARLARI DIQQATIGA!

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

2024/2025-oʻquv yili bitiruvchilarini taʼlim muassasalari, korxona va tashkilotlarga ishga tavsiya etish va taqsimlash jarayoni boshlanganini maʼlum qiladi.

Universitetni bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari boʻyicha tamomlayotgan yosh mutaxassislar hozirgi kunda pedagoglik kasbiga va oʻz taʼlim yoʻnalishi boʻyicha qoʻyilayotgan kasbiy talablarga toʻliq javob beruvchi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan mehnat bozori talabiga mos keluvchi yuqori malakali mutaxassis kadrlardir.

Xususan, 2024/2025-oʻquv yilida universitetni tamomlayotgan bitiruvchilarga turli korxona va tashkilotlardan buyurtmalar kelib tushmoqda.

Bitiruvchi kadrlarga ehtiyoji mavjud davlat (nodavlat) taʼlim muassasalari, korxona va tashkilotlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari rahbarlari talabnoma va soʻrov xati orqali Buxoro davlat universiteti rahbariyatiga murojaat qilishlari mumkin. Talabnomada buyurtmachining rekvizitlari (pochta manzili, telefon raqami) hamda taklif etilayotgan lavozim toʻgʻrisidagi maʼlumotlar toʻliq koʻrsatilishi talab qilinadi. Buyurtmachilar (ish beruvchilar) <https://bkm-buxdu.uz/> havolasi orqali mavjud boʻsh ish oʻrinlari eʼlonlarini joylashtirish imkoniyatiga ega.

№	Taʼlim yoʻnalishlari (bakalavriat)			Jami	Shu jumladan, viloyatlar boʻyicha																	Buxoro viloyati shahar va tumanlari boʻyicha												
	Shifri	Nomi			Toshkent viloyati	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	Toshkent shahri	Navoiy viloyati	Samarqand viloyati	Xorazm viloyati	Surxondaryo viloyati	Qashqadaryo viloyati	Andijon viloyati	Fargʻona viloyati	Namangan viloyati	Jizzax viloyati	Sirdaryo viloyati	Buxoro shahri	Buxoro tumani	Vobkent tumani	Gʻijduvon tumani	Jondor tumani	Kogon tumani	Kogon shahri	Qorakoʻl tumani	Qorovulbozor tumani	Olot tumani	Peşku tumani	Romitan tumani	Shofirkon tumani				
		1	2		3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30		
JAMI				2823	18	38	12	141	127	116	61	134	42	55	43	22	17	354	234	168	223	209	100	58	134	32	75	115	133	162				
shundan, kunduzgi taʼlim shaklida				2582	11	29	8	133	96	97	45	117	40	48	39	18	13	323	217	157	215	202	94	58	131	31	70	104	131	155				
1	60412400	Agrobiznes va investitsion faoliyat		43		1	1		4	1	3	6		6	1	3	1	3	2		1	3			2		2	2	1					
2	60810700	Agrokimyo va agrotuproqshunoslik		36		1						1		1				4	6		3	6	1		4		2	2	5					
3	60540200	Amaliy matematika		57				2			1							4	2	2	5	12	1	4	11	1	1	3	7					
4	60210800	Amaliy sanʼat (badiiy kulohchilik)		21				1	2									3	3	1	2	5							4					
5	60220400	Arxeologiya		26		1		2	2		1	7		1	1		2		1		1	2			1	1	1		2					
6	60610200	Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar boʻyicha)		48		2		1	1	1	1	2	1	1	2			3	2	5	1	8		3	5	2	2	2	3					
7	60320200	Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar		24	1	1		1				2	1	1	1	3			1	2		2	1		1		4	1	1					
8	60510100	Biologiya (turlari boʻyicha)		114		1		6	4	1	2	4	2	2	1	1		17	12	5	6	7	5	2	11	2	6	2	4	11				
9	60710200	Biotexnologiya (tarmoqlar boʻyicha)		32				5	1			2			1			2	2	2	1	1	1	3	1	1	3	1	3	2				
10	60410100	Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar boʻyicha)		44		1		1	1			3	1		1		1	7	5	6	1	3	1		2	1	2	4	3					
11	60211500	Cholgʻu ijrochiligi (xalq cholgʻulari)		48	1	1		2		3								4	4	5	7	5	3	4	2	1	3	1	2					
12	60710400	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar boʻyicha)		48				4	2	3		3						2	3	4	2	5	4	4			4	4	3	1				
13	60230103	Filologiya va tillarni oʻqitish (fransuz tili)		56				2	1	3					1			3	3	3	33				5			2	2	1				
14	60230101	Filologiya va tillarni oʻqitish (ingliz tili)		107			1	4			2							31	15	8	8	9	5	3	7	2	1	3	6	2				
15	60230119	Filologiya va tillarni oʻqitish (nemis tili)		52	2			3	3	7		5	2		2	1		5	3	6	5	2		1			1	3	1	1				
16	60230104	Filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili)		150		1	1	9	2	4	3	6	1	4	1			12	11	10	8	14	7	3	13	2	3	4	17	14				
17	60230107	Filologiya va tillarni oʻqitish (rus tili)		139	1		4	3	2	5	2	4	2	4	6	1		28	15	8	11	10	1	7	2	3	2	2	8	8				
18	60530900	Fizika		106		1		1	8	4	2	8	2	2				7	8	4	11	7	6		14		6	6	4	5				
19	60530400	Geografiya		32				1	1			4		1					3	3	6	2			2	1		1	5	2				
20	61010500	Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (fransuz tili)		16		1		1		6								1	1		4				1	1								
21	61010500	Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (ingliz tili)		33		1		2										10	7	1		2	4		1	3			1	1				
22	61010500	Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (nemis tili)		12				3		2		1					1	1			3								1					
23	60920100	Ijtimoiy ish (oil va bolalar bilan ishlash)		42	2			4	3	1			1	1	2		1	2	3	5		3	1		3			2	3	4				
24	60310100	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar boʻyicha)		59		2		3		1	1	2	1				1	18	8	3	3	6	3		1		2	2	1	1				
25	60812000	Issiqxona xoʻjaligini tashkil etish va yuritish		15		1		2			1				1			2			1	1				1	1	1	1	2				
26	60320100	Jurnalistika (bosma OAV jurnalistikasi)		32	1	1			2	1	1	3	3	1	1	1	2		1	1	1	2	1		1				5	3				
27	60530100	Kimyo (turlari boʻyicha)		123	1	1		10	14	4	3	10	1	2	1			7	6	2	20	9	11	3	2	2	3	1	1	9				
28	60610100	Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari (yoʻnalishlar boʻyicha)		53		1		3	2	1		1		1				7	3	8	3	4	1	2	2	1	2	4	1	6				
29	60411700	Logistika (yoʻnalishlar boʻyicha)		37	1			1		4	5	3	1	2			1	6	2	2	2			1	1	1		1	2	2				
30	60212000	Madaniyat va sanʼat muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish		50				12	1	2	1	3		1				6	5	1	3	1	1		3			1	6	3				
31	60412500	Marketing (tarmoqlar va sohalar boʻyicha)		34	1	1	1	1	3			3						14	3	2		1			1		1	1	1					
32	60540100	Matematika		125				7	2	1	1	3	1				1	19	16	10	13	9	6		2		9	9	6	10				
33	61010100	Mehmonxona xoʻjaligini tashkil etish va boshqarish		77				4	2	4		2	2	2	3			32	7	5	1	3		3	1	1		3	2					
34	60811800	Mevachilik va uzumchilik		13				1	2	2	1		1		1				1	1					1	1				1				
35	60531000	Mexanika va matematik modellashtirish		23				2	3	3	2	2	1					1	2	1	1	1		1		2								
36	5111600	Milliy gʻoya, maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlimi		1															1															
37	60811000	Oʻsimliklarni himoya qilish (ekin turlari boʻyicha)		54		1		4	3	6	1	3	1				1	2	3	1	5	5	2	1	6	1	2	1	1	4				
38	60310900	Psixologiya (amaliy psixologiya)		78				5	5		1	1	2	1	1	1		7	6	10	4	10	6	2	1	3	4	5	1	2				
39	60310900	Psixologiya (oil va psixologiyasi)		28				4		3	2	1						1	3		5	3	2		1	1	1			1				
40	60310900	Psixologiya (sport)		24				2	5	3		1	2	1	1			2	1			2			2					2				
41	60811300	Qishloq xoʻjalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari boʻyicha)		49		1				5		2	3	1	1		1	2	5	4	2	7		2	2		4	1	2	4				
42	60210500	Rangtasvir (dastgohli)		23				2										4	2	3	2	1		2	2				1	4				
43	60811900	Sabzavotchilik, poltchilik va kartoshkachilik		16						2				2				3	3	1	1	1		1	1				1					
44	60410800	Statistika (tarmoqlar va sohalar boʻyicha)		24		1			1	2		4	2					2	2					1	1	2			1	5				
45	60220200	Tarix (Islom tarixi va manbashunosligi)		32				1	3		1	3	2	4	3			1	2		1	2	1					5	2	1				
46	60220300	Tarix (mamlakatlar va yoʻnalishlar boʻyicha)		143					4		2	6		1	3			5	14	9	15	18	13	1	3		2	18	16	13				
47	60230206	Tarjima nazariyasi va amaliyoti (fransuz tili)		11						4											3							1	3					
48	60230205	Tarjima nazariyasi va amaliyoti (nemis tili)		13				1	3	2			1					2										1	3					
49	60230200	Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)		28		2		1						1				12	2	3	1		1	2	1			2						
50	61010400	Turizm (faoliyat yoʻnalishlari boʻyicha)		91		4		8	6		4	5	3	4	3	1	12	5	6	6	5	1	2	5			3	3	2					
51	60211400	Vokal sanʼati (anʼanaviy xonandalik)		35				1	1	4		1			3			4	6	4	3	2	2			2		2	1					
52	5111400	Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)		5														2				1			1		1							
shundan, kechki taʼlim shaklida				241	7	9	4	8	31	19	16	17	2	7	4	4	4	31	17	11	8	7	6		3	1	5	11	2	7				
1	60540200	Amaliy matematika		19		1		1	6	1		2			1			1				2	1				2	1						
2	60411300	Biznesni boshqarish (tarmoqlar boʻyicha)		14		2	1	1	4		1	1									2							1	1					
3	60410100	Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar boʻy																																

ISLOHOTLAR

Yaqinda Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatida bo'lganida hududni kompleks rivojlantirish bo'yicha o'tkazgan yig'ilish nafaqat andijonliklar, balki mamlakatimiz hayotida muhim voqea sifatida e'tirof etildi. Viloyat ahli bilan olib borilgan yuzma-yuz samimiy muloqot zahirida inson manfaatlari va uning farovon hayotini ta'minlashdek ezgu maqsadlar namoyon bo'ldi.

Munosabat

Hech narsa o'z-o'zidan bo'lmaydi. Rahbari yurtparvar xalqning dasturxonini to'kin, mamlakati obod bo'ladi. Xalqni birlashtirish, o'ziga, ertangi yorug' kunlarga ishonitirish esa so'z va ish birligini talab etiladi. Yangi O'zbekistonning zafari odimlari har bir mahalla, har bir xonadonga kirib ulgurangani – islohotlarning naqadar keng qamrovli va samarali ekaniga ishoradir. Albatta, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan andijonliklar ham bahramand bo'laloytir.

Andijon bugun barcha soha va tarmoqlarda jadal rivojlanyapti. Viloyatning ulkan salohiyati islohotlar ijrosiga astoydil kirishilganligida va odamlarning kundalik hayotiga ijobiy o'zgarishlar tez sur'atlarda olib kirilayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ayonki, Andijon mamlakatimizdagi hududi eng kichik, aholisi esa eng zich yashaydigan viloyat hisoblanadi. U respublika hududining 1 foizini, aholisi esa qariyb 10 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun ham Andijonda yerning har qarichidan oqilona foydalanish talab etiladi. Prezidentimiz mutasaddilarga respublikadagi barcha qir va adirlardan samarali foydalanish takliflarini ishlab chiqish vazifasini topshirdi. Shubhasiz, bunda Andijon tajribasi o'ziga xos namuna bo'ladi.

Aholini uy-joy bilan ta'minlash maqsadida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2021-yilda Yangi Andijon shahri qurilishi boshlangan edi. Bu galgi tashrifda Prezident loyihaning ilk natijalari bilan tanishdi. Ushbu shahar Andijon tumanidagi



adirlkada 4 ming gektar maydonda barpo etilmoqda. Qurilish sakkiz bosqichli bo'lib, ko'p qavatli uylar, zamonaviy maktablar hamda maktabgacha tarbiya muassasalari, korxonalar, ijtimoiy obyektlar foydalanishga topshirilmoqda.

Endilikda hududdagi "Yangi O'zbekiston bog'i"da har yili rassomlar festivali o'tkaziladigan bo'ladi. Prezidentimiz yangi barpo etilgan shaharda o'tkazilgan tantanali marosimdagii nutqida yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi – inson qadrini ulug'lash, xalqimizning huquq va manfaatlarini ta'minlash, shu asosda odamlarni hayotdan rozi qilish ekanligini ta'kidladi. Ayniqsa, o'zining betakror ilmiy va ijodiy merosi bilan millatimiz, xalqimizni butun dunyoga tarannum etgan buyuk ajdodimiz – Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasini abadiylashtirish maqsadida Yangi Andijon shahriga Bobur shahri, deb nom berishni taklif qilgani barchamizni ruhlantirib, cheksiz g'ururlantirdi.

Endi Bobur shahri eng go'zal, zamonaviy maskanga aylanishi, bu shahardan haqiqiy boburiylar yetishib chiqishi uchun bobomiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan bog'cha va maktab, universitet, muzey, kutubxona va IT parkdan iborat yirik ta'lim klasteri barpo etilishi, oliygo'h

tarkibida eng yuqori talabarga javob beradigan sport kompleksi qurilishi belgilandiki, bu yurtdoshlarimizning qalbidagi gap bo'ldi. Zamonaviy arxitektura alomatlarini, ko'p qavatli, mahobatli binolarni, Bobur Mirzoning muhtasham haykalini o'zida mujassam qiladigan, milliy madaniyat va san'atimiz, o'zbekona bag'rikenglikni aks ettiradigan Bobur shahri yurtimizning eng obod, xalqimizning sevimli go'shalaridan biriga aylanishiga ishonchimiz komil.

Respublikada ilk bor adirlkada ko'p qavatli uylar qurishni tajriba qilgan andijonliklar bugun bo borada ito'yilik, turkiyalik hamkorlardan kam ishlamayapti. Yangi tajribaga kirishilgach ishsiz yoshlar yurtini obod etish, tarixiy bunyodkorlik ishlarida qatnashishday sharafli

“ Andijonda yerning har qarichidan oqilona foydalanish talab etiladi. Prezidentimiz mutasaddilarga respublikadagi barcha qir va adirlardan samarali foydalanish takliflarini ishlab chiqish vazifasini topshirdi. Shubhasiz, bunda Andijon tajribasi o'ziga xos namuna bo'ladi.

yumushga safarbar qilindi. Shu tariqa yoshlar yurt bunyodkori bo'lib, bandligi ta'minlandi. Bobur shahrida joriy yil yana mingdan ziyod xonadonlar uchun 40 ta yangi uy qurib bitkaziladi. Rejada uylar soni 2 mingtaga yetishi kerak. Bu turarjoyga muhtoj bo'lgan qancha-qancha oilalarning orzusini ro'yogba chiqaradi. Quvonarlisi, bu tajriba kelgusida yanada ommalashadi.

Prezidentimiz Buloqboshi tumanida viloyat faollari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda: "Agar barchamiz bir bo'lib, hamjihat bo'lib ish olib borsak, yutuqlarimiz yanada ko'payadi, biz zabt etolmaydigan marraning o'zi bo'lmaydi, Andijon yanada obod bo'ladi", deya ta'kidladi. E'tirof etish kerakki, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohasida tub o'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yurtni obod qilish, xalqimiz

turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar, uddalanayotgan bunyodkorlik ishlari samarasi o'laroq, Vatanimiz iqtisodiyoti, xalqimizning turmush farovonligi yanada yuqori bosqichga ko'tarilmoqda.

Birgina aholini uzluksiz elektr energiya bilan ta'minlash masalasini olaylik. Mamlakatimizda gidroenergetika sohasi barqaror rivojlanish va ekologik tozalikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xususan, kichik va mikroGESlarni qurish orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanish, aholiga uzluksiz elektr energiyasini yetkazib berish hamda iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Shu ma'noda, Prezidentimiz viloyatda suv oqimi yuqori bo'lgan ariq va kanallardan samarali

hozirgi talablarga mos kelmay qolgan edi. Uchish-ko'nish yo'lagining yuk ko'tarish qobiliyati pastligi, zamonaviy yoritish tizimining yo'qligi sababli qatnovlarni qabul qilish imkoniyatlari cheklangandi. Bugungi kunda rekonstruksiya ishlarining birinchi bosqichi bitkazildi. Uzunligi 3 ming 300 metr, kengligi 60 metr bo'lgan yangi uchish-ko'nish va yurish yo'laklari hamda samolyotlar to'xtash joyi qurildi. Drenaj tizimi yangilanib, yer osti suvi qochirildi. Shuningdek, bu yerda ikkinchi yurish yo'lagi qurilishi davom ettirilib, "IKAO CAT-II" toifasidagi radar, meteorologiya va yoritish uskunalari o'rnatish ishlari olib borilmoqda. Natijada "Boeing", "Airbus" rususidagi yirik samolyotlarni noqulay ob-havo sharoiti va tungi vaqtlarda ham qabul qilish mumkin bo'ladi. Bu kunlik parvozlar sonini 10 barobargacha oshirish imkonini beradi.

Bugun Andijon viloyatining bir paytlar paxta xomashyosi yetishtirishdan boshqa imkoniyati bo'lmagan tuman va shaharlari, chekka hududlariga sanoat jadal kirib kelayotir. Viloyatdagi sanoat zonasida yangi korxonalar tashkil etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksportbo mahsulotlar ishlab chiqarishga oid loyihalarining amalga oshirilishi joriy yilda 5 mlrd. 700 mln. dollarlik 166 ta investitsiya loyihasini ishga tushirish imkonini beradi. Bu orqali 31 mingta ish o'rni ochiladi. 31 turdagi yangi mahsulot olish yo'lga qo'yilib, 1,5 mlrd. dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi. Eng muhimi, yil yakuniga qadar viloyatda 305 ming nafar aholi daromadli ish bilan ta'minlanadi.

Xullas, bugun Andijon qiyofasi tubdan o'zgardi: tor yo'llar, pastak uylar o'rni keng va ravon yo'llar, muhtasham va ko'ram inshootlar egalldi. Andijonliklar hayotida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar, eng avvalo, odamlarning bugunidan rozi bo'lib yashash ishtiyoqini, ertangi kunga bo'lgan umid va ishonchini oshirmoqda.

Baxtiyor RASULOV,
Andijon davlat pedagogika instituti rektori,
tarix fanlari doktori, professor.

MUBORAK SAFAR BOSHLANDI

O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida diniy-ma'rifiy soha rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, haj va umra tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish yangi bosqichga ko'tarildi. 2016-yilda 5 ming 200 nafar vatandoshimiz haj amallarini bajorgan bo'lsa, 2024-yilda 15

“Haj – 2025” mingdan ortiq mo'min-musulmonlar hojilik sharafiga muvassar bo'ldi.

Bu yil ham 15 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz haj ibodatini ado etishadi. Mamlakatimizning 9 ta hududiy aeroportidan ziyoratchilar har kuni to'g'ridan-to'g'ri Madina shahriga haj safariga yuboriladi. Parvozlari "Uzbekistan Airways" AJ bilan birgalikda Saudiya Arabistonining "FlyNas" va "FlyAdeal" aviakompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi.



"Haj – 2025" mavsumining ilk ziyoratchilari aeroportdan Saudiya Arabistoniga jo'nab ketdi.

Shu kuni Madina shahriga eson-omon yetib kelgan ziyoratchilar "Haj – 2025" ischisi guruhi va mutasaddilar tomonidan tantanali kutib olindi.

Yurtdoshlarimizga muhtasham "Zam-zam Pullman" mehmonxonasiga kirishlari bilanog zam-zam suvlari, xurmo, shirinliklar va hadyalar ulashilib, izzat-ikrom ko'rsatildi. Vatandoshlarimiz shodlik va shukronalik tuyg'ulari bilan ziyorat va ibodatlarini ado etishga kirishdi.

Ayniqsa, mehmonxonaning Masjidi Nabaviyga juda yaqin masofada joylashganidan hojilarimiz behad mamnun qilmoqda. Ular kunlik barcha ibodatni ushbu muborak masjidda ado etmoqda. O'z duolarida Yaratgandan yurtimizga tinchlik-osoyishtalik, xalqimizga farovonlik so'rashmoqda.

Eslatib o'tamiz, ziyoratchilarimiz 2025-yil 13-maydan 28-mayga qadar haj safariga kuzatiladi.

“Xalq so'zi”.

OILAVIY BAXT – ENG ULUG‘ SAODAT

Ko'krak nishoni bilan taqdirlanganlar orasida ellik yil birga umrguzaronlik qilganlarni ko'rib, havasimiz keldi. Zero, oilada bir-birini tushungan insonlar baxtli bo'ladi. Hayot faqat yaxshi kunlardan iborat emas. "Er-xotin – qo'shqanot" deb bejiz aytishmagan. Qachonki, oila qanotlari mustahkam bo'lsa, o'sha xonadonda tinchlik hukm suradi.

Kasbim taqozosi bilan kino va teatrlarda o'zbek kelinlari, onalari va qaynonalari rolini o'ynadim. "Yulduzli tunlar" asaridagi Xonzodabegim yolg'iz o'g'ilchasi bilan Balxan Qunduzga kelayotganda yuragini titratgan xavf-xatarlar, og'ir sinovlardan yuragim qalqidi. Usmon Nosirning onasi obrazini tasavvur qilish uchun ko'plab kitoblarni varaqladim. Uni qaynonasi Nodirabonu e'zozlab "ipak kelinim", deb atagan. Xolambibi ilmiy, ma'rifatlil bo'lgan. U kelin bo'lib tushgan xonadonda xuddi farishtadek uchib yurgan, tovushi hech qachon baland chiqmagan. Hech vaqt hech kimga jahl qilmagan. Mayin ovozda so'zlagan, mayin qadamlar tashlagan, yurganda yelkasi uzra qirq o'rimg sochilari mayin tebranib turgan. Uning qozon-o'chog'i hech qachon qora qurum ko'rmagan. Hovlisidan rayhon iforlari qo'shnilarinkigacha taralib turgan. Bugun ham kino va teatr sahnalarida beodob, turmush o'rtog'ini bir chaqмага o'lmaydigan, o'zbek ayoli nomiga dog' tushiradiganlar emas, Xolambibiga o'xshagan bekalar ko'payishini istardim. Baxtli oilalar uchun ibrat bo'ladigan obrazlar yaratishimiz kerak.



Faxriddin INKOROV,
"Ibratli oila" ko'krak nishoni sohibi (Toshkent viloyati):

– Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida oila turibdi. Chunki oila – jamiyatning birinchi va eng ta'sirli tarbiya maskani, insonning ilk maktabi, xalqning ma'naviy kuchini shakllantiruvchi muqaddas dargoh. Inkorovlar oilasini "Ibratli oila" ko'krak nishoni bilan taqdirlashganda, o'z qaramog'imizga olgan 14 nafar bolamiz ham quvondi. Har safar duoga qo'l ochganimizda dilbandlarimizga baxtu saodat so'raymiz. Boshida bitta farzand olgandik, keyin bular safiga 8 qiz va 5

Mohira MAMUTOVA,
"Ibratli oila" ko'krak nishon sohibasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi):

– Eng yosh oilalar safida "Ibratli oila" ko'krak nishoniga Bekniyazovlar oilasi ham munosib topilganidan xursandmiz. Ota-onamizning duosini olib, qaynota-qaynonamizni rozi qilib shu darajaga erishdik.

Kundalik hayotimizda "oilal" degan so'zni ko'p ishlatamiz, ammo bu nom naqadar muqaddas va sharafliilgini bugungi tantanada yana bir bor yurakdan his qiladi. Oila masalasiga davlat darajasida e'tibor berilayotgani, yurtimizda ko'plab baxtli oilalar borligini ko'rib-bildik. Ularning har biri ibrat, namuna va katta tajribaga ega.

Adiba UMIROVA
("Xalq so'zi").

YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

O'zbekiston energetika haftaligi

Poytaxtimizdagi "CAEx Uzbekistan" xalqaro ko'rgazmalar markazida O'zbekiston energetika haftaligi – "UEW 2025" o'z ishini boshladi.



Tegishli vazirlik va idoralar hamkorligidagi ushbu haftalikda 34 davlatdan 465 ta kompaniya va brend qatnashmoqda.

Tadbir doirasida 120 dan ortiq spikerlar hamda 1 420 nafar delegat ishtirokida sanoatni rivojlantirish kun tartibi va mintaqaviy muloqotni belgilashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan qator ko'rgazma hamda konferensiyalar o'tkaziladi. "O'zbekiston neft va gazi – OGU 2025" ko'rgazmasi hamda anjumani, "Energetika, energiya tejash, atom energetikasi va muqobil energiya manbalari – Power Uzbekistan 2025" ko'rgazmasi, 5-xalqaro energetika anjumani shular sirasiga kiradi.

Aviakompaniyalarga subsidiya ajratiladi

Mamlakatimizda 2021-yil 1-iyundan boshlab mahalliy aviaqatnovlarni subsidiyalash yo'lga qo'yilgan.



Vazirlar Mahkamasining shu yil 7-maydagi "Mintaqaviy aviatashuvlarni va ichki turizmni yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, mahalliy aviaqatnovlarni amalga oshiruvchi barcha rezident aviakompaniyalarga subsidiya ajratiladi va bu 2026-yil 1-yanvargacha davom etadi.

Qarorga ko'ra aviachiptalar narxlarini hamda aviaqatnov yo'nalishlarini subsidiyalash miqdorini belgilash bo'yicha maxsus komissiya tarkibi qayta tasdiqlandi.

Mahalliy yo'nalishlardagi aviaqatnovlarga "Uzbekistan Airways" AJ uchun belgilangan maxsus tariflar va subsidiya miqdorlarini barcha rezident aviakompaniyalarga ham tatbiq etishga rozilik berildi.

Shu munosabat bilan barcha rezident aviakompaniyalar maxsus komissiya tomonidan belgilangan mahalliy yo'nalishlar va tariflar doirasida aviachipta sotishni yo'lga qo'yadi hamda har oy yakuni bo'yicha 2021-yil 14-oktyabrdagi 188-son buyruq bilan tasdiqlangan jadval shaklida Transport vazirligiga subsidiyalash uchun arizalar kiritadi.

Minitraktor — sanoat namunasi

Minitraktor sanoat namunasi sifatida SAP 2674-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi va huquqiy muhofazaga olindi.



Bu haqda Adliya vazirligining rasmiy telegram sahifasida ma'lum qilindi.

Unga ko'ra minitraktorning asosiy belgilaridan biri – uning o'lchamlari va g'ildiraklarining o'ziga xosligi hisoblanadi.

Chunki ushbu xususiyatlar minitraktorga barcha turdagi qishloq va uy xo'jaligi ishlarini bajarishda to'liq og'ir vaznli traktorning o'rni bosish imkonini beradi.

Minitraktorning dizayni – tashqi ko'rinishi odatiy traktornlarni yodga soladi, biroq o'lcham jihatidan ulardan ancha kichik va ixcham. Buyumning tashqi ko'rinishini ifodalaydigan badiiy-konstruktorlik yechimi sanoat namunalari jumlasiga kiradi.

“Xalq so'zi”.

Namangan viloyatida 25-maydan start oladigan 64-xalqaro gullar festivaliga qizg'in tayyorgarlik ko'rilmogda.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2030-5788

4772030 578001

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohnani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilbi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir R. Bobojonov.

Musahhih Sh. Mashrabboev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 02.20 Topshirildi — 02.20

1 2 3 4 5 6